

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Turapova Ra'no Barat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Variativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlanirish muammosining maktab amaliyotidagi holati tahlili jarayonida asosiy e'tiborni o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlanirish tajribasi maktab o'qituvchilarining dialogik nutq to'g'risidagi fikrlaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish amaliyotining real holati va o'qituvchilarning kuchli hamda zaif tomonlarini ko'rib chiqamiz. Ona tili ta'limida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlanirish bo'yicha mavjud tajribani o'rghanish va umumlashtirish maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslari kuzatildi va quyidagi savollarga javob izlandi:

- a) dialogik nutq bo'yicha ta'limning maqsadi bilan daxldor savollar – ta'limni ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalari, tanlangan o'quv topshiriqlarining ijodiy ta'lim maqsadi, vazifalariga mosligi;
- b) dialogik nutq ta'lim mazmuni bilan daxldor savollar – ijodiy topshiriqlarning o'quv materiali mazmuniga mosligi, o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlari muvofiqligi, u yoki bu ijodiy ishlarning o'quv topshiriqlari tizimidagi o'rni;
- v) boshlang'ich ta'limning jarayoni xususiyatlari bilan aloqador savollar – ijodiy topshiriqlarning dars turi, bosqichlariga mosligi, ijodiy ta'limda bolalarning real o'quv imkoniyatlari, ishlash tempi bilan bog'liqligi, ijodiy ishlarni bajarishda foydalaniladigan usullar, ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldin o'rghanilgan bilim va faoliyat usullarini qo'llash, yangi bilim va faoliyat usullarini qayd qilish vositalari.

Darslarni kuzatish va qayd qilishda prof. O.Roziqov ishlab chiqqan dars turlarini asos qilib oldik [157]. Bunda quyidagi dars turlari qayd qilingan: yangi o'quv materialini o'rnatish va mustahkamlash darslari; o'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari; bilim va malakalarni umumlashtirish darslari; bilim va malakalarni nazorat qilish darslari [157, 34-68].

Birinchi dars turi – ona tilidan yangi o'quv materialini o'rnatish va mustahkamlash darsining yadrosi bolalarni yangi mavzuni o'rghanishga tayyorlash, yangi ta'rif, qoidalarni, mavzuga oid dalillarni idrok qilishni ta'minlash, idrok qilingan faoliyatdan ilk bor o'tgan bilim, faoliyat usullarini mustahkamlashdan iborat. Ta'lim jarayonida muammolar qo'yish, savollarni o'rtaqa tashlash, qiyin o'quv holatlari hosil qilish yo'llari bilan o'quvchilar diqqati yangi mavzu va unga oid dalillarga tortiladi, mavzuni o'qitish maqsadi tushuntiriladi. Binobarin, bolalarga o'z maqsadlarini mustaqil belgilashga jalb qilish, qo'yilgan muammoning qiyinligini anglatish, qo'yilgan savollarga javob izlatish yo'llari orqali ham ta'limning samaradorligini oshirish, bolalarni ijodiy ishslashga undash mumkin.

Biz shu nuqtai nazardan darsning ikkinchi bosqichi – yangi bilim va faoliyat usullarini idrok etish bosqichida o'quvchilarning ijodiy izlanishlariga imkoniyat yaratishga harakat qildik. Jumladan, o'quvchilar oldin o'rghanilgan mavzuga va endi o'rghanilayotgan mavzuga oid dalillarni o'zaro taqqoslash, mavzuga oid dalillarni kuzatish, kuzatilgan dalillardan xulosalar chiqarishga yo'naltirish, chiqarilgan xulosani darslikda berilgan ta'rif, qoidaga taqqoslash kabi vazifalarni bajarish topshirig'i asosida faoliyat olib bordi. Bu ko'rinishdagi o'quv yumushlari

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

bolalarning ijodiy mustaqil faoliyatini ta'minlaydi. Xuddi shunga o'xshab, mavzu o'rganilgach, uni mustahkamlash bosqichida ham turli-tuman ijodiy ishlarni o'tkazsa bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi ijodiy ishlar sirasiga o'rganilgan ta'rif, qoidalarni yangi dalillarga ko'chirish, ta'rif, qoidalarni yangi o'quv holatiga tatbiq qilish kabi ijodiy ishlar kiradi. Bulardan ayon bo'ladiki, dars turlarining har birida bolalarni ijodiy ishlarga jalb qilish imkoniyatlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularni metodik jihatdan to'g'ri belgilab olish dolzarb muammo sanaladi. Tadqiqot jarayonida o'qituvchilar tajribasini o'rganish yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash dars tipi bo'yicha 57 ta mashg'ulotda hammasi bo'lib 25 marta dialogik nutq bo'yicha ish tashkil etilganini ko'rsatdi. Har bir dialogik nutq olib borishga o'rtacha 3 minutdan vaqt ajratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ikki xil xulosa chiqarish mumkin: ona tili darslarining birinchi turida o'quvchilar o'rtasida dialogik nutqni tashkil etishga nihoyatda oz vaqt ajratiladi va ahyon-ahyonda o'tkazilib turiladi; ikkinchi dars turida, ya'ni o'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsida o'rganilgan mavzular bo'yicha malakalar takomillashtiriladi va darslik mashqlari ustida ish qilinadi. O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari bolalar xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, ularda bilimlarni o'xhash sharoitlarga tatbiq qilish kabi o'quv yumushlariga ko'p vaqt ajratiladi. Bu o'z navbatida ijodiy topshiriqlarni ta'limga tatbiq etish uchun juda oz vaqt ajratishga olib kelmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Uralovich T. F. THE ROLE OF APPLIED ART IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC SKILLS OF STUDENTS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 111-118.
2. Uralovich T. F. PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING AESTHETIC SKILLS IN FUTURE DRAWING TEACHERS //International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 139-144.
3. Uralovich T. F. FACTORS AFFECTING THE FORMATION PROCESS OF AESTHETIC SKILLS IN DRAWING LESSONS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 115-119.
4. Toshpulatov F. Qadimiylar grax va o'simliksimon (Islimiyl) naqsh elementlarining geometrik tahlili //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 4.
5. Toshpulatov F. QIRQIM VA KESIM BAJARISHDA OQUVCHILARDA TIPIK XATOLARGA YOL QOYMASLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH //Физикотехнологического образования. – 2022. – №. 4.
6. Urolovich T. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN'AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH 50 | Page Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 09 | 2023 ISSN: 2751-756X <http://innosci.org> NAMUNALARINI CHIZISH //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 158-162.
7. Toshpulatov F. CHIZMACHILIK FANINI TABIIY HODISALAR BILAN AMALIY BOG'LQLIGI //Физико-технологического образования. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
8. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.
9. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o'yinlar //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 487-491.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

10. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.